



Yevropa ittifoqining moliyaviy
ko'magi bilan ta'minlandi



Har bir bola uchun

**SURXONDARYO VILOYATIDA INKLYUZIV TA'LIM, IJTIMOYIY XIZMATLAR VA
HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH**

**UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA
UNICEF TOMONIDAN MOLIALASHTIRILGAN LOYIHA**



JINOYAT VA HUQUQBUZARLIK SODIR ETGAN BOLALARNING HUQUQLARI

Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatli bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.



Mazkur qo'llanmada huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan bolalarning huquqlari, shuningdek, bolalar qanday so'roq qilinishi, hibsga olinishi (qamoqqa olinishi), bu jarayonlarda kimlar ishtirok etishi va ular qancha muddat davom etishi haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, qo'llanmada uchraydigan yuridik atamalarning izohi bolalar tushunadigan soddada beriladi.



HUQUQIY ATAMALARNING IZOHI

Ayblanuvchi shaxs – shaxs O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilinganda ayblanuvchi shaxs hisoblanadi.

Shaxsning aybi **sud qarori** bilan isbotlanmaguncha **aybsiz** deb hisoblanadi.



Dalil - jinoyat ishida to'g'ri qaror qabul qilish uchun nima sodir bo'lgani yoki bo'lmagani haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.



Gumonlanuvchi shaxs - huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan shaxs birinchi navbatda **gumonlanuvchi** deb hisoblanadi. Hech kimning bolaga bosim o'tkazishga, unga "bu jinoyatni sen qilgansan!" deyishga va boladan qilmagan ishdagi aybini tan olishini talab qilishga haqqi yo'q.



Huquqbuzarlik deganda boshqa shaxslarning qonun bilan kafolatlangan huquqlarini buzish, shuningdek, boshqa shaxslarga, mulkka, davlatga va jamiyatga zarar yetkazadigan xavfli xatti-harakatlar tushuniladi.



Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan taqiqlangan harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etish **jinoyat** hisoblanadi.

Jinoyat sodir etish Jinoyat kodeksida belgilangan jazo bilan bir qatorda jinoiy javobgarlikka ham sabab bo'ladi.

Jinoyat boshqa shaxslarga yoki boshqa shaxslarning mulkiga qarshi harakatlarni sodir etishni o'z ichiga olishi mumkin.

Jinoyatlarning ko'p turlari mavjud. O'g'rilik, firibgarlik, odamlarni turli xil kaltaklash va boshqa shunga o'xshash harakatlar eng ko'p sodir etilgan jinoyatlarga misol bo'la oladi.



Huquqbuzar shaxs deganda boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzgan, ularning mol-mulkiga (masalan, avtomashina, shaxsiy va boshqa narsalar) zarar yetkazgan yoki qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etgan shaxs tushuniladi.




Jinoiy javobgarlik **14 yoshdan** boshlanadi. Bu yoshdan boshlab, shaxs qasddan odam o'ldirish yoki boshqa shaxsga hujum qilish uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish **16 yoshdan** boshlanadi.

Jinoyat va huquqbuzarlik uchun javobgarlik yoshi o'rtasidagi farqni tushunish muhimdir.

Sudlanuvchi shaxs – shaxs sudda ayblanuvchi sifatida ishtirok etganda **sudlanuvchi shaxs** hisoblanadi. Sud shaxsning ishini ko'rib chiqib, hukm chiqaradi. Agar uning aybi sudda isbotlansa, u hukm qilinishi mumkin, agar uning aybi isbotlanmagan bo'lsa, u aybsiz hisoblanadi.



Shaxsni ushlab turish deganda uni boshqa jinoyat sodir etmasligi yoki boshqa joyga yashirilib olmasligi uchun maxsus qo'riqlanadigan joyga joylashtirish tushuniladi.



BOLANING QONUNYI VAKILLARINING ISHTIROKI

Bolalar bilan bog'liq jinoyat ishlarida bolaning qonuniy vakillarining ishtiroki majburiy hisoblanadi.

Qonuniy vakil sifatida quyidagi shaxslar ishtirok etishlari mumkin:

- bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslar;
- voyaga yetgan qarindoshi yoki bola ishonadigan boshqa shaxs;
- bolani asrab olgan ota-onalar;
- vasiylar, homiylar;
- ota-ona qaramog'isiz qolgan bola joylashtirilgan davlat muassasasining rahbari.



Bolaning qonuniy vakillari uning **huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida** jinoyat ishida ishtirok etadi.

Bolaning qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida **birinchi marta** so'roq qilingan paytdan boshlab tergovchining qarori bilan ishtirok etishda qatnashadi.



Qonuniy vakilga bola ushlab turilganligi haqida, shuningdek, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqirilayotgani haqida xabar berilishi lozim.

VOYAGA YETMAGAN BOLANI SO'ROQ QILISH

So'roqni jinoyat ishi bo'yicha tergov olib borayotgan shaxs olib boradi. Bola sudda ham so'roq qilinishi mumkin.

Bolani so'roq qilishda uning ota-onasi (ularning o'rmini bosuvchi shaxslar), shuningdek, pedagog yoki psixolog ishtirok etadi.



So'roq paytida boladan nima bo'lganligi haqida erkin so'zlab berishi so'raladi. Shundan so'ng, u aytganlarini aniqlashtirishi yoki to'ldirishi uchun unga savollar berilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bo'lgan bolani so'roq qilish kuniga **6 soatdan ortiq** davom etmasligi kerak.

So'roq paytida ovqatlanish va dam olish uchun **1 soat** vaqt ajratilishi kerak.

So'roq paytida boladan olingan ma'lumotlar so'roq bayonnomasida qayd etiladi.

So'roq bayonnomasida so'roq qilingan odamlarning barcha so'zlari qayd etiladi.

Bolalar, kattalar singari, so'roq paytida savollarga javob bermaslik, o'zlariga yoki yaqinlariga qarshi ma'lumot bermaslik huquqiga ega.

ADVOKATGA (HIMOYACHIGA) EGA BO'LISH

Jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan har bir bola **advokat** va **yuridik yordam** olish huquqiga ega bo'lishi kerak. Advokat sudgacha bo'lgan jarayonda va sud jarayonida bolaning yonida bo'lishi kerak. Bola advokat yordamini rad eta olmaydi, chunki advokatlar bolalarga ularning huquqlarini ta'minlashda yordam berishlari, huquqiy himoyasini amalga oshirishlari va ularga maslahat berishlari kerak bo'ladi.



USHLAB TURISH

Ba'zida bolalar jinoyat sodir etgan taqdirda hibsga olinishi mumkin. Bunday vaziyatlarda bolalar qanday huquqlarga ega?

Qamoqqa olish shaxsning boshqa jinoyatlar sodir etishining oldini olish uchun qo'llanilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi shaxsni ushlab turish muddati u ichki ishlar organlariga yoki boshqa idoraga olib borilgan paytdan boshlab 48 soatdan oshmasligi kerak.

Agar bola hibsga olinsa, bu haqda uning qarindoshlari darhol xabar-dor qilinadi.

Qonunni buzganlikda gumon qilinayotgan bola **nima bo'lganini aytmasligi (guvohlik qilmasligi), biror hujjatga imzo chekmasligi, guvohlik bermasligi** va advokat kelguniga qadar **sukut saqlashi** talab qilinadi.



SHAXSNI USHLASH JARAYONINI AMALGA OSHIRISHGA KIM HAQLI?

Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish **ichki ishlar organlari** va boshqa organlar vakillari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.



USHLAB TURILGAN SHAXSNING HUQUQLARI



Ushlab turilgan bolaning huquqlariga quyidagilar kiradi:



- **Telefon qilish yoki xabar berish:**

Ushlab turilgan bola advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish huquqiga ega.



- **Nima uchun ushlab turilganligini bilish:**

Ushlab turilgan bola nimada gumon qilinayotganini bilishga haqli. Boshqacha aytganda, unga qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgani haqida aytilishi kerak bo'ladi.



- **Advokat (himoyachi) olish huquqiga ega:**

Ushlab turilgan bolaga advokat, shuningdek, u bilan cheklanmagan miqdorda va muddatlarda uchrashish huquqi kafolatlanadi.

Bundan tashqari, qonunni buzganlikda gumon qilinayotgan bola nima bo'lganini aytmasligi (guvohlik qilmasligi), biror hujjatga imzo chekmasligi, guvohlik bermasligi va advokat kelguniga qadar sukut saqlashi talab qilinadi.



- **Ona tilida ko'rsatma berish:**

Ushlangan bola ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa, u holda birinchi so'roq qilishdan oldin uning huquqlari tarjimon ishtirokida tushuntirilishi kerak.

BOLANI USHLAB TURISH CHOG'IDA QAMOQDA SAQLASH

Qamoqqa olingan bola vaqtincha saqlash hibsonalarida 10 sutkagacha saqlanishi mumkin.

Hibsdan saqlash vaqtida bolalar yaxshi yashash sharoitlari va yaxshilangan ovqatlanish standartlari bilan ta'minlanishi kerak.

Qamoqqa olish joylarida har bir ushlab turilgan voyaga yetmaganlar uchun uy-joy me'yori uch kvadrat metrdan kam bo'lmasligi kerak.



Voyaga yetmaganlarning har kungi sayri kamida 2 soat davom etadigan qilib belgilanadi. Sayrlar vaqtida voyaga yetmaganlarga jismoniy mashqlar va sport o'yinlari uchun imkoniyat berilishi kerak.

Ushlab turilgan va qamoqqa olinganlarga himoyachisi, qonuniy vakili, qarindoshlari hamda boshqa shaxslar bilan uchrashish huquqi beriladi.

JINOYAT SODIR ETGAN BOLALARNING ADOLATLI SUDLOV HUQUQLARI

Ishi sudda ko'rilayotgan huquqbuzar bola sud muhokamasida o'zining **qonuniy vakili** (ota-onasi, uning o'rnini bosuvchi shaxs), **yaqin qarindoshi** va **advokati** (himoyachisi) bilan birga ishtirok etish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sifatida jalb qilingan har bir bola uning aybi sud tomonidan aniqlanmaguncha **aybsiz** hisoblanadi. Buning yana bir huquqiy atamasi **aybsizlik prezumpsiyasi** deb ataladi.



AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI

Aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat huquqining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bolalarning jinoyat sodir etishda aybdorligi sudda ko'rib chiqilib, aniqlanmaguncha **aybsiz** hisoblanadi.

Shu bilan birga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bola o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab berilgan.



HUQUQBUZARLIK SODIR ETGAN BOLALARNING SUD QARORI USTIDAN SHIKOYAT QILISH HUQUQI

Sud qarori ustidan **shikoyat** huquqbuzar bolaga nisbatan sud qarori (hukmi) chiqarilgandan keyin beriladi.

Shikoyat berish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Shikoyat apellyatsiya yoki kassatsiya deb ataladigan tartibda berilishi mumkin. Qoida tariqasida, shikoyat berish zarurati jinoyat ishi bo'yicha ba'zi yangi dalillar yoki qo'shimcha ma'lumotlarning aniqlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur qo'llanmada, sizga ba'zi murakkab huquqiy atamalar, shuningdek, bola qanday so'roq qilinishi, bolaning advokat olish huquqi, hibsga olinganda bolalar qanday huquqlarga ega ekanligi, aybsizlik prezumpsiyasi nima ekanligi hamda boshqa foydali va qiziqarli ma'lumotlar berilgan.



Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalari amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu

Veb-sayt: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en

Facebook: www.facebook.com/edudeluzb

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: info@adliya.uz

Veb-sayt: www.adliya.uz

BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: tashkent@unicef.org

Veb-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>